

## ARAB TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA KONTEKSNING XUSUSIYATI

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti talabasi  
**Yangiboyeva Muborak**  
rebekamarin7@gmail.com

Ilmiy rahbar: Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti  
kafedراسi mudiri, pedagogika fanlar nomzodi,  
dotsent **Qodirova Kamala Salixovna**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida e'tibor berish kerak bo'lgan jarayonlar haqida so'z yuritiladi. Tarjima qilishda qanday qiyinchiliklar kuzatilishi xususan, "Solihning tuyasi" matnini tahlil qilish orqali mavzu yanada chuqurroq bayon qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** So'zma-so'z tarjima, kontekst, Solihning tuyasi, sinonim*

***Аннотация:** В этой статье рассказывается о процессах, на которые следует обратить внимание в процессе перевода с арабского на узбекский язык. Какие трудности наблюдаются при переводе, в частности, анализируя текст «Верблюд Салиха», тема раскрывается более подробно..*

***Ключевые слова:** Дословный перевод, контекст, верблюд Салиха, синоним*

***Annotation:** This article discusses the processes that need to be considered when translating from Arabic to Uzbek. The difficulties encountered in translation, in particular, will be explored in more depth through the analysis of the text "Salih's Camel".*

***Keywords:** Literal translation, context, Salih's camel, synonym*

Arab tili juda boy va murakkab grammatika, leksika va sintaksisga ega. Bu tilda yozilgan asarlarni boshqa tillarga, masalan, O'zbek tiliga tarjima qilish, faqat so'zlar va iboralar orqali emas, balki chuqurroq tushuncha va madaniy kontekstni hisobga olishni talab qiladi. Arab tilidagi matnlarning tarjimasi jarayonida ko'pincha lug'aviy tarjima etishdan ko'ra, ma'nolarni to'liq ifodalash, stilistik va madaniy kontekstni hisobga olish zaruriyatlarini paydo bo'ladi.

Shunday gaplar bo'ladiki, ularni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilsa ma'no va mazmun jihatdan hech qanday g'alizlik yuzaga kelmaydi va bu to'g'ridan to'g'ri tarjima deyiladi.<sup>1</sup>

Misol uchun: أنا الناقة المباركة المعجزة

Men muborak, mo'jizakor tuyaman. Bu yerda المباركة va المعجزة so'zlari Tuyay uchun sifat bo'lib kelmoqda ya'ni uning qandayligini bildiradi. Arab tilidagi so'zlarning ma'nosi ko'pincha faqat o'zbek tiliga bevosita tarjima qilinganda noaniq bo'lishi mumkin. Misol uchun, "ناقة" (naqat) so'zi "tuya" degan ma'noni anglatadi. Biroq, arab tili boyligi va kontekstga qarab, bu so'z nafaqat "tuya"ni, balki "mo'jiza"

<sup>1</sup> [I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov "Tarjima nazariyasi" Tafakkur bo'stoni nashriyoti. 2012]

yoki "xudo tomonidan yuborilgan inoyat"ni ham ifodalashi mumkin. O'zbek tilida bu ma'nolarni to'liq aks ettirish uchun qo'shimcha izohlar berish zarur.<sup>2</sup>

### Madaniy kontekst

"Naqat Sālih" iborasi faqatgina bir tuya emas, balki muqaddas bir ob'ekt sifatida qaraladi, chunki bu Qur'onda Sālihning mo'jizasi. Tarjimon bu ma'noni yaxshilab tushinishi va matnni madaniy kontekstda to'g'ri talqin etishi kerak. Agar bu kontekstni hisobga olmasak, "tuya" so'zi o'zining barcha diniy va madaniy ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Sinonim tanlash bu tarjimaning eng qiyin bo'limlaridan hisoblanadi. Chunki bir so'zning boshq sinonimi boshqa o'rinda ishlatilishi mumkin. Misol tariqasida

arab tilidagi "جاء" (jā'a) so'zi "kelmoq" degan ma'noni anglatadi.

أتى (atā) – "kelmoq", "yugurib kelmoq". Bu so'z ham "jā'a" bilan deyarli teng ma'noga ega, lekin ba'zida biror bir faoliyatni yoki maqsadni bajarish uchun kelishni anglatishi mumkin.

وصل (waṣala) – "yetib kelmoq", "borib yetmoq". Bu so'z ko'proq joyga yoki manzilga yetib borish jarayonini anglatadi, ya'ni maqsadga yetish yoki chegaraga yetishish.

إلى جاء (jā'a ilā) – "biror joyga kelmoq". Bu ifoda aynan "kelmoq" ma'nosini anglatib, "boshqa joyga yoki kishiga kelish"ni bildiradi. Bularning barchasi kontekstga qarab ishlatiladi, lekin asosan "جاء" so'zi biror narsaning boshlanishini yoki kelishini anglatadi, va uning sinonimlari shunga o'xshash ma'nolarni ifodalaydi.

و في النهاية إتفقوا على ذبحي

Ushbu jumlada على predlogi ishlatilgan. Buning o'rniga إلى predlogi ishlatilmaydi. Demak, tarjima jarayonida grammatika juda kata rol o'ynaydi. Sababi, إلى asosan biror bir yo'nalishdan boshqa yo'nalishgacha bo'lgan masofani tasvirlash uchun ishlatiladi.

جزاء كفرهم و عصيانهم الله و رسوله

Bu kontekstda جزاء so'zi ham mukofot ham jazo sifatida ishlatiladi. Kontekstdan kelib chiqib tanlanadi. O'zbek tilida bunday matnlarni tarjima qilishda ko'pincha faqat so'zlarni to'g'ri tanlash kifoya qilmaydi. Ba'zi hollarda, qo'shimcha izohlar yoki tushuntirishlar kiritish zarur bo'ladi. Masalan, Sālih peyg'ambarning hayoti, uning mo'jizalari va tuyaning ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot kiritish tarjima matnining to'liqligini ta'minlaydi. Arab tilining sintaksisi va uslubi O'zbek tiliga nisbatan farqlidir. Masalan, arab tilida ko'plab qisqartmalar, ma'lum bir kontekstga oid murakkab iboralar ishlatiladi, bu esa tarjimonning yuqori darajadagi til bilishini talab qiladi. Bunday holatda, tarjimon arabcha matndagi stilistik xususiyatlarni va ifodalash usulini saqlab qolish uchun O'zbek tilidagi tegishli ekvivalentlarni topishga majbur bo'ladi.

فوافق صالح عليه السلام، بأن يأخذوا حليبي في يوم، ويتركوه في اليوم التالي، ليرضع منه وليدي، فأصبح الحليب مشاركة بين القوم، و بين وليدي.... وكان ذلك سببا في التفاف المؤمنين حول صالح.... و كان ذلك سببا

<sup>2</sup> [\[https://wordlyknowledge.uz\]](https://wordlyknowledge.uz)

فى ضيق الكفار بي... ملأ الحقد و الحسد قلوب الكفار و المعاندين ضدى، برغم أنهم يأخذون حليبي الطيب  
...المبارك... و لذلك إجتمع الكفار فى بيت زعيمهم و تناقشوا فى أمرى<sup>3</sup>

(Shunda Solih alayhissalom mening sutimdan bir kun olib, ertasi kuni olmasdan qoldirishga rozi bo'ldilar, mening yangi tug'ilgan bolam emishligi uchun .Bu mo'minlarning Solih atrofida to'planishlariga sabab bo'ldi... va bu kofirlarning menga tanglik qilishlariga sabab bo'ldi...mening pok va muborak sutimdan olishlariga qaramasdan. Kofirlar va menga qarshi bo'lganlarning qalblarini nafrat va hasad to'ldirdi . Shuning uchun kofirlar o'z boshliqlarining uyiga yig'ilib, mening ishimni muhokama qildilar...)<sup>4</sup>

Bu kontekstda ma'no asosida tarjima qilingan,so'zma-so'z tarjima emas. Ma'noni saqlab qolgan holatdagi ushbu tarjima usuli juda keng qo'llaniladi.

Iboraning asl ko'rinishi:

"ملأ الحقد و الحسد قلوب الكفار و المعاندين ضدى، برغم أنهم يأخذون حليبي الطيب المبارك"

So'zma-so'z tarjima:<sup>5</sup>

"Kofirlar va mangu qarshilik ko'rsatuvchilarning qalblarini hasad va g'azab to'ldirdi, garchi ular mening yaxshi va muborak sutimdan foydalansalar ham."

Kontekst tarjimasi:

"Kofirlar va menga qarshi chiqqanlar qalblari hasad va adovat bilan to'ldi. Bu holat, ular mening muborak sutimdan foydalanib tursalar ham, ularning g'azabini kamaytirmadi."

So'zma-so'z tarjima: Ibora matnning asl so'zlarini o'zbek tiliga tarjima qilishdir, lekin kontekstni to'liq yoritmaydi.

Kontekst tarjima: Ibora mazmunini tushuntirib, uning ma'nosini o'quvchiga tushunarli va tabiiy qiladi. Shu bilan birga, matnning diniy va ma'naviy ma'nosini chuqurroq aks ettiradi.

### **Xulosa**

Arab tilidan O'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida, nafaqat so'zlarning lug'aviy ma'nosini, balki madaniy va diniy kontekstni ham to'liq tushunish zarur. Har bir arabcha ibora yoki matn, o'zining tarixiy, madaniy va diniy ta'sirini hisobga olib, tarjimaga yondashish kerak. Bu usul tarjimaning to'liqligi, aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Ochilov E."Tarjima nazariyasi" ToshDshi, 2014
2. ابن كثير. "تفسير القرآن العظيم." دار الفكر العربي. ١٩٩٧.
3. I.G'ofurov,O.Mo'minov, N.Qambarov "Tarjima nazariyasi" Tafakkur bo'stoni nashriyoti. 2012
4. <https://wordlyknowledge.uz>
- 5.Abdulaziz Mansur. "Tafsiri Hilol" Toshkent: Hilol-Nashr, 2005.

<sup>3</sup>[ابن كثير. "تفسير القرآن العظيم." دار الفكر العربي ]

<sup>4</sup>[Abdulaziz Mansur. "Tafsiri Hilol." Toshkent: Hilol-Nashr, 2005.]

<sup>5</sup> [Ochilov E."Tarjima nazariyasi" ToshDshi,2014 ]